


# ҲУМАНС

## Humans Pay to'lovlar va o'tkazmalar xizmati – Humans ekotizimi o'sishining asosiy omili

Humans ekotizimi Humans Pay brendi ostida barcha to'lov va o'tkazma xizmatlarini birlashtirdi.

Bu 2022-yilda "Maroqand" MChJ to'lov tashkilotining sotib olinishi (UPay savdo belgisi) va barcha xizmatlarning yagona platformaga integratsiyalashuvi tufayli mumkin bo'ldi.



**16 sentabr 2024 y., Toshkent.** — Bugungi kunda "Maroqand" MChJ to'lov tashkilotining texnologik yechimi "Humans" ekotizimiga to'liq integratsiyalashgan. Bu kompaniyaga O'zbekiston fintex bozorining barcha segmentlarida o'z ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Natijada, Humans ekotizimidagi fintex-servislari sezilarli o'sishni ko'rsatdi. 2024-yilning birinchi yarmida Humans Pay mijozlari soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45%ga oshdi.

2024 yilning birinchi 6 oyida Humans Pay daromadi dollar ko'rinishida \$5 million dollardan oshdi, bu 2023 yilning birinchi yarmiga nisbatan 65%ga ko'p. 2024 yilning birinchi yarmida amaliyotlar aylanmasi 2023 yilning shu davriga nisbatan 85%ga oshdi.

Bitimlar soni ham izchil o'sishni ko'rsatmoqda – 2024-yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich 60 milliondan ortiq tranzaksiyani tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21%ga ko'p.



*«Biz Humans ekotizimining qanchalik qulay xizmatlari bozorni tobora ko'proq zabit etayotganini ko'rmoqdamiz. Mijozlarimiz bazasi, xizmatlar aylanmasi va uning kapitallashuvi ortib bormoqda - bu ko'rsatkichlarning barchasi mamlakatda naqd pulsiz to'lovlarни оммалаштириш ва молиавији саводхонлики оширишда Humans'ning о'mи муҳимлигини тасдиqlaydi.*

*G'arb ekspertlarining fikricha, bugungi kunda bиргина Humans Pay xizmatining kapitallashuvi 60 million dollarni tashkil qiladi. O'з navbatida, biz O'zbekistonning butun raqamli iqtisodiyotining jadal rivojlanishi bilan bog'liq ekotizimning yanada faol o'sishi istiqbollarini ko'rmoqdamiz», — dedi Humans Group bosh direktori va asoschisi Vladimir Dobrynin.*

Humans ekotizimining barcha fintex xizmatlarini yanada rivojlantirish Humans Pay brendi ostida amalga oshiriladi – to'lov va pul o'tkazmalari xizmatiga talab yuqoriligi sababli bunday qaror kompaniya rahbariyati tomonidan qabul qilindi.

---

Humans.uz moliyaviy xizmatlar, uyali aloqa xizmatlari va mahsulot marketpleysi o'zida mujassam etgan super ilovadir. Loyiha 2020-yil iyun oyida O'zbekistonda Humans Group tarkibida ishga tushirilgan bo'lib, u AQShda Humans.net xodimlarni qidirish platformasini ham ishlab chiqmoqda. Guruhning ofislari AQSH, O'zbekiston, Polsha, Singapur va Germaniyada joylashgan.

Matbuot xizmati: [pr@humans.net](mailto:pr@humans.net)